



**JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI TEKSHIRISHNING NAZARIY-
HUQUQIY MOHIYATI VA OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI
TAHLILI**

Jo‘rabekov Toxirjon Ma‘murjon o‘g‘li

**Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o‘qituvchisi,
katta leytenant**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20514645>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada jinoyat protsessida dalillarni tekshirish tushunchasi, uning huquqiy tabiati va isbotlash jarayonidagi o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan dalillarni tekshirish va baholash institutlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda farqli jihatlar JPK 94 va 95-moddalari misolida yoritib berilgan. Mavzu yuzasidan Yu.K. Orlov, V.A. Lazareva, R.S. Belkin kabi yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy o‘rganilib, mualliflik xulosalari asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: dalillarni tekshirish, isbot qilish jarayoni, ishonchlilik, aloqadorlik, maqbullik, nazariy qarashlar, dalillarni to‘plash, tergov va sud amaliyoti.

Аннотация. В данной статье теоретически проанализированы понятие проверки доказательств в уголовном процессе, его правовая природа и место в процессе доказывания. Автором освещены взаимосвязь и различия между институтами проверки и оценки доказательств на примере статей 94 и 95 Уголовно-процессуального кодекса (УПК). Также осуществлен сравнительный анализ научных взглядов таких ведущих ученых, как Ю.К. Орлов, В.А. Лазарева, Р.С. Белкин, и обоснованы авторские выводы.

Ключевые слова: проверка доказательств, процесс доказывания, достоверность, относимость, допустимость, теоретические взгляды, собрание доказательств, следственная и судебная практика.

Contact: 99 826 99 56



ANNOTATION. This article theoretically analyzes the concept of verification of evidence in criminal proceedings, its legal nature, and its role in the evidentiary process. The author highlights the interrelationship and differences between the institutions of verification and evaluation of evidence using Articles 94 and 95 of the CPC as examples. The scientific views of leading scholars such as Yu.K. Orlov, V.A. Lazareva, and R.S. Belkin are comparatively studied, and the author's conclusions are substantiated.

Keywords: verification of evidence, process of proof evidentiary process, reliability credibility, relevance, admissibility, theoretical views, collection of evidence, investigative and judicial practice.

Foydalanilgan metodlar: Maqolada tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, shuningdek, olimlarning qarashlarini guruhlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida olib borilayotgan ko‘plab islohotlar shaxsni huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan keng qamrovli islohatlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur islohotlar samarasi o‘laroq adolatli va holis sudlovni ta‘minlash, jinoyat protsessida dalillarni tekshirish tartibini takomillashtirish, tergov jarayonida fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[1]gi Farmoni da shaxsning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash, protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg‘or xorijiy tajribada keng qo‘llaniladigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish, hamda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha





sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalari sifatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilish holatlari yuzasidan zudlik bilan zarur choralar ko‘rish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda sansalorlik va befarq munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yganlik uchun jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash belgilandi.

“Isbot qilish jarayoni xatolardan xoli bo‘lmas ekan, haqiqatni aniqlash va binobarin adolatga yetishish amru mahol, bu jarayonning takomil bo‘lishiga erishish jinoyat protsessi fanining eng dolzarb va markaziy muammolaridan biridir”.[2]

Har qanday ilmiy tadqiqotlarning dastlabki bosqichida ularning tushunchasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fan metodologiyasida bu prinsip sifatida ko‘rsatilganligi uning qanchalik darajada muhim ekanligini ham ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, “dalillarni tekshirish” bilan bog‘liq ilmiy ishlarda ham dastlab uning tushunchasini tahlil qilish lozimdir. Bu omil nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham ishni sudga qadar yuritishni amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xodimlarda yagona fikrni shakllantirishga xizmat qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda – JPK deb yuritiladi)da, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda “dalillarni tekshirish” tushunchasiga ta‘rif keltirilmagan bo‘lsa-da, JPKning 94-moddasida “Ish bo‘yicha qabul qilinadigan qaror sinchkovlik bilan, to‘la, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo‘lishi lozim. Tekshiruv qo‘shimcha dalillarni to‘plashdan iborat bo‘lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin” [3]ligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Fikrimizcha, JPKning 94-moddasida dalillarni tekshirish tushunchasi asosan





“qo‘shimcha dalillarni to‘plash orqali tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlash yoki rad etish jarayoni” sifatida berilgan.

Bu ta‘rif o‘z mohiyatiga ko‘ra qisqa va jarayonning ayrim muhim jihatlarini qamrab olgan bo‘lsa-da, uni to‘liq va ilmiy jihatdan mukammal deb bo‘lmaydi. Avvalo, dalillarni tekshirish – faqat qo‘shimcha dalillarni yig‘ish orqali amalga oshiriladigan harakat emas, balki unda dalillarning qonuniy olinganligi, ishga oidligi, ishonchliligi va ularning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishini tahlil qilish kabi kengroq jarayonlar ham mavjud.

Izohli lug‘atlarda “dalillarni tekshirish” atamasi “to‘g‘ri-noto‘g‘ri, haq-nohaqligini bilish maqsadida ko‘zdan, e‘tibordan o‘tkazmoq” ma‘nolarida ishlatilgan.[4]

Izohli lug‘atdagi ta‘rif tilshunoslik nuqtai nazaridan umumiy tushuncha sifatida to‘g‘ri bo‘lsa-da, protsessual nuqtai nazarda olib qaraganda tekshirish jarayoni qonunchilikda belgilangan qoidalarga tayangan holda amalga oshiriladi va u muayyan bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Shu sababli, lug‘atdagi ta‘rif huquqiy mazmundagi “tekshirish”ning chuqur va tizimli tarzdagi ma‘nosini to‘liq aks ettirmaydi, balki uning faqat umumiy ma‘no darajasini ko‘rsatadi. Shuning uchun jinoyat-protsessual qonunchiligida ko‘rsatilgan “tekshirish” atamasi kengroq ilmiy va huquqiy mazmunga ega bo‘lib, faqat ko‘zdan kechirish bilan cheklanmaydi.

Qomusiy lug‘atlarda “dalillarni tekshirish” tushunchasiga ta‘rif berilmagan bo‘lsa-da[5], “tekshirish” “dalillar” degan ta‘riflarni JPK da ko‘rsatilgandek ifoda etilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Yuridik manbalardagi mavjud qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dalillarni tekshirish tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xususan, Yu.K. Orlov dalillarni tekshirish ularning ishonchliligini aniqlashga qaratilgan, deb hisoblaydi. Ba‘zi hollarda dalilning maqbulligi (dalilning





maqbulligini tekshirishning eng keng tarqalgan usuli xolislarni so‘roq qilishdir) yoki aloqadorligi (masalan, hodisa joyini ko‘zdan kechirish jarayonida olingan barmoq izlari hodisa joyiga kirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa shaxslarning barmoq izlari bilan taqqoslanadi) tekshirilishi lozim.[6]

Yu.K. Orlov dalillarni tekshirishning mohiyatini aniq va har tomonlama qamrab olgan holda, uning ishonchlilik, maqbullik va aloqadorlik kabi asosiy mezonlarga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Bu fikrlarni nafaqat Orlov, balki Ginzburg, Belkin, Arsenev, Bezlepkina va Mixaylovskaya kabi nufuzli olimlar ham qo‘llab-quvvatlagan. Ular dalillarning ishonchliligini ta’minlash uchun tekshirish — baholash — taqqoslash — tahlil kabi bosqichlardan tashkil topgan kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaganlar. Bu esa, dalilning huquqiy kuchga ega bo‘lishi uchun uning haqiqiy, qonunga muvofiq va ish bilan aloqador bo‘lishi shartligini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan Yu.K.Orlovning dalillarni tekshirishga doir fikrlariga qisman qo‘shilgan holda, dalillarni tekshirishning keng tarqalgan usuli sifatida so‘roq qilish va hodisa sodir bo‘lgan joyini ko‘zdan kechirish jarayonida olingan barmoq izlarini olish orqali tekshirishdan tashqari, bizning fikrimizcha, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish va tergov eksperimenti kabi tergov harakatlari bilan ham dalillarni tekshirish mumkin degan fikrni ilgari surmoqdamiz.

V.A. Lazarevaning ta’kidlashicha, “boshqa dalillarni olish, ularning to‘plamini kengaytirish tekshirilayotgan dalilning manbalarini aniqlashni ham, dalillarni o‘zaro taqqoslash imkoniyatini ham ta’minlaydi”. Har bir yangi dalil mavjud dalillarni tekshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi va o‘zi ular tomonidan tekshiriladi.[7]

V.A. Lazareva fikriga qo‘shilgan holda, dalillarni tekshirish jarayonida dalillarning o‘zaro bog‘liqligini va ularni har tomonlama tahlil qilish zarurligini





asoslab beradi. Chindan ham har bir yangi dalil bu yangi ma'lumotlarni olish va ularnin ishonchliligini tekshirishdan iboratdir. Yangi dalillarni vujudga kelishi uchun tergovchi surishtiruvchi tomonidan mavjud dalillarni qayta baholagan holda, ularni asosi va manbalarini qayta tahlil qilishga majbur qiladi. Bu esa dalillarni tekshirishda nafaqat holislikni balki uning ishonchliligini ta'minlaydi.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, V.A. Lazarevaning dalillarning o'zaro bog'liq holda tekshirilishi va yangi dalillarni olish orqali mavjud dalillarning manbalarini aniqlash, ularni taqqoslash imkoniyatini yaratish haqidagi fikri ko'plab nufuzli olimlar — R.S. Belkin, A.Ya. Ginzburg, B.T. Bezlepkin, M.Ye. Smorgunova va Yu.K. Orlov tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ularning barchasi dalillarni tekshirish faqat individual emas, balki majmuaviy, tizimli va o'zaro taqqoslash asosida amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv ishonchli, qonuniy va xolis dalillar orqali haqiqatni tiklashda muhim ahamiyatga ega.

M.Ye. Smorgunova ham yangi va qo'shimcha dalillarni to'plash elementiga diskret o'tish kuzatilishini, bu jarayon "tekshirish-yig'ish-tekshirish" zanjiri asosida ishlashini to'g'ri ko'rsatadi. Bu yondashuv JPKdagi "tekshiruv qo'shimcha dalillarni to'plashdan iborat" degan qoidaga hamohangdir.[8]

M.Ye. Smorgunovanning fikriga qo'shilgan holda, dalillarni to'plash va tekshirish jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq va korrelyatsion xususiyatga ega ekani haqidagi fikri juda to'g'ri. Tergov jarayonida yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi qo'shimcha dalillarni to'plash zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa "tekshirish – yig'ish – tekshirish" tamoyilini shakllantiradi. JPKda belgilanganidek, tekshiruv qo'shimcha dalillarni to'plashdan iborat bo'lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin. Shu jihatdan, Smorgunovanning qarashlari dalillarni to'plash va baholash jarayonining ilmiy asoslanganligini hamda tergovda bilish jarayonining mantiqiy modelini to'la aks ettiradi.

I.B. Mixaylovskayaning fikricha, "tergov va sud dalillari o'rtasidagi farq





ularni olish, tekshirish va baholash amalga oshiriladigan shart-sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi”.[9]

I.B. Mixaylovskayaning “tergov va sud dalillari o‘rtasidagi farq ularni olish, tekshirish va baholash amalga oshiriladigan shart-sharoitlarga bog‘liq” degan fikriga to‘liq qo‘shilish mumkin. Darhaqiqat, dastlabki tergov bosqichida dalillar asosan surishtiruvchi va tergovchi tashabbusi bilan to‘planib, ularning ishonchliligi dastlabki shart-sharoitlarda tekshiriladi. Sud bosqichida esa dalillar sud muhokamasi jarayonida hamda taraflar ishtirokida qayta baholanadi. Shuning uchun dalillarning huquqiy ahamiyati va ularga berilgan ishonch darajasi aynan qaysi sharoitda o‘rganilishi bilan bevosita uzviy bog‘liqdir.

B.A. Rajabovning ta’kidlashicha, dalillarni tekshirish – isbot qilishning alohida bosqichi bo‘libgina qolmasdan, dalillarning yetarli bo‘lgan hajmini, ya’ni majmuini to‘plashga xizmat qiladigan qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib, isbotlashning boshqa bosqichlari orasida markaziy o‘rin egallaydi hamda ish bo‘yicha isbotlash predmetiga kiradigan holatlarni aniqlashga yordam beradi. Odatda dalillarni tekshirish har bir dalilga nisbatan alohida amalga oshirilib, dalil aniqlangan va to‘plangandan keyin ishlatiladigan bosqichdir.[9]

Isbotlanishi zarur bo‘lgan barcha holatlar aniqlanganidan so‘ng, dalillarni to‘plash jarayoni yakunlanadi. Shu bosqichdan keyin tergovchining faoliyati asosan u ilgari surgan farazning ziddiyatsizligini tekshirishga yo‘naltiriladi. Bu tekshiruv jarayonida tergovchi, bir tomondan, mantiqiy tahlil asosida dalillarni o‘zaro taqqoslaydi, ikkinchi tomondan esa, tekshirilayotgan dalilning asoslilikini tasdiqlaydigan yoki inkor etuvchi qo‘shimcha dalillarni to‘plash maqsadida tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Dalillarni baholash esa nafaqat har bir dalilning aloqadorlik, maqbullik va ishonchlilik mezonlariga ko‘ra to‘plangan paytdan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladi, balki barcha yig‘ilgan dalillar majmuasi asosida sodir bo‘lgan voqea holatlariga oid to‘liq va izchil nazariyani





shakllantirish uchun ularning yetarliligi nuqtai nazaridan bilvosita baholash ham olib boriladi.

“Dalillarni tekshirish” va “dalillarni baholash” tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan jarayonlardir. Chunki dalillarni tekshirish jarayonida ularning qonuniy yo‘l bilan olinganligi, manbalari, haqqoniyligi va mosligi aniqlanadi, ularning ishonchliligi to‘liq tasdiqlanishi uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar to‘planadi. Bu jarayonda dalillarning yetarliligi masalasi ham markaziy o‘rin tutadi, ya’ni tekshirish jarayonida ishni to‘g‘ri hal qilish uchun zarur dalillar majmuasi shakllantiriladi. Shunday ekan, dalillarni tekshirish faqat yangi ma’lumotlarni to‘plash va mavjud dalillarni qayta ko‘rib chiqish bilan cheklanmasdan, ularning qonuniyligi va ishonchliligi bo‘yicha baholash mezonlarini belgilash uchun ham ilmiy-amaliy zamin yaratadi. Bu esa dalillarni baholash jarayonida ob’ektiv va mantiqiy qarorlar qabul qilishni kafolatlaydi. Shu tariqa, dalillarni tekshirish va baholash jarayonlari izchil va bir-biriga bog‘liq tarzda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yagona isbotlash tizimining ikki muhim bosqichini tashkil etadi.

Yuqoridagi keltirib o‘tilganlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki JPK ning 94 va 95 moddalar ya’ni, dalillarni tekshirish va dalillarni baholashda o‘xshashliklar kuzatilmoqda hamda ularni farqlash uchun zarurat tug‘ilmoqda. Xususan,

1.O‘xshashliklari:

- har ikkala moddada ham sinchkovlik, to‘la, har tomonlama va holisona dalillarni tahlil qilish kerakligi qayd etilgan;
- ikkalasi ham isbotlash jarayonida dalillarni qonuniyligini, ishonchliligi va maqbulilligini ta’minlash maqsadini ko‘zlagan;

2.Farqlari:

- 94-modda ko‘proq dalillarni tekshirish jarayoni va uning mazmuniga





qaratilgan. Unda tekshirishning maqsadi, ya'ni yangi va qo'shimcha dalillarni yig'ish orqali mavjud dalillarni tasdiqlash yoki rad etish zarurligi qayd etilgan.

-95-modda esa dalillarni baholash jarayonini belgilaydi. Unda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning ichki ishonchi, huquqiy ong va qonunga amal qilish mezonlari asosida dalillarni baholash qoidalari belgilangan.

-Shu bois 94-modda isbot jarayonining amaliy va faol harakatlar bosqichi (dalillarni to'plash va tekshirish), 95-modda esa huquqiy va mantiqiy baholash bosqichi (qabul qilinadigan qarorning asosliligi) sifatida qaralishi mumkin.

Bundan tashqari dalilarni tekshirish va dalillarni baholashdagi chegara aniq ko'rsatilmaganligi va buni chegarasini aniqlash zarurati tug'ilayotganligi.

94-modda – dalillarni tekshirish va to'plashga qaratilgan jarayonning me'yoriy asosi. Bu yerda tergovchi va surishtiruvchi harakatlari, yangi ma'lumotlarni aniqlash, dalillar manbalarini o'rganish, ularni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi holatlarni aniqlashga doir harakatlar ustun turadi.

95-modda – dalillarni baholash va qaror qabul qilishning huquqiy asosi. Bu bosqichda surishtiruvchi va sud organlarining ichki ishonchi, huquqiy ong va qonunga asoslangan xolis bahosi orqali amlaga oshiradi.

Xulosa o'rnida ashuni ytish mumkinki, dalillarni tekshirish — bu shunchaki mavjud ma'lumotlarni yig'ish emas, balki ularning haqqoniyligini amaliy va mantiqiy usullar bilan tekshirish jarayonidir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tekshirish faol izlanish va baholash huquqiy xulosa bir-biridan farq qilsa-da, o'zaro to'ldiruvchi mexanizm sifatida yagona tizimni tashkil etadi. Aynan ushbu bosqichning mukammalligi pirovardida sud qarorining nafaqat qonuniy, balki adolatli bo'lishini ta'minlovchi bosh mezondir.

REFERENCES





1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagi “Sudtergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6041-son Farmoni
2. Inomjonov Sh.X. Jinoyat protsessida dalillarni taqdim qilish va ulardan foydalanish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2005. – B. 4.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2026.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T., 2006. – B. 56.
5. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashir uchun ma’sul R.A.Muhitidinov va boshqa.; ma’sul muxarrir N. To‘ychiev .- T.: Adolat, 2010-122, 448-449 B.
6. Orlov Yu.K. Проблемы теории доказательств в уголовном процессе. М., 2009. 3, 112-bet
7. Lazareva V.A. Доказательство в уголовном процессе. М., 2009. 6, 65-bet
8. Smorgunova M.Ye. Теоретические основы и практика проверки досудебных доказательств в уголовном процессе: avtoref. dis.yurid. nauk. Novgorod, 2004. 7, b.
9. Mixaylovskaya I.B. Настольная книга судьи по доказыванию в уголовном процессе / I.B. Mixaylovskaya. М.: ТК Velbi, Просpekt, 2006. S. 125.
10. Rajabov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta’minlash: Yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – B. 138.

